

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

МИЛЛИЙ ОЗОДЛИК КУРАШЧИЛАРИ ОБРАЗИ БАДИИЙ ТАСВИРИНИНГ МАНБАЛАРИ, ГЕНЕЗИСИ ВА АДАБИЙ-ЭСТЕТИК ТАМОЙИЛЛАРИ

Akramov Sherzod XALMIRZAYEVICH,

PhD, Qarshi DU O`zbek mumtoz adabiyoti kafedrası dotsenti

akramovsherzod05@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15291028>

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy ozodlik kurashchilari obrazini yaratish genезisi qadimiy bo`lib, O`rxun-Enasoy yodgorliklariga – toshbitiklarga, xalq og`zaki ijodiga borib bog`lanadi. Ushbu obraz o`zbek mumtoz adabiyotida o`ziga xos adabiy-estetik xususiyatlarga ega bo`lib, milliy uyg`onish adabiyotida poetik takomilga erishgan. Maqolada Milliy ozodlik kurashchilari obrazi badiiy tasvirining manbalari, genезisi va adabiy-estetik tamoyillari o`rganilgan.

Kalit so`zlar: genезis, badiiy obraz, xalq og`zaki ijodi, milliy ozodlik, bosmachi, tarixiy manba, adabiy manba.

Аннотация. В статье говорится о древнем генезисе создания образа борцов за национальную свободу, который связан с памятниками Орхун-Енасыя и фольклором. Этот образ имеет свои литературно-эстетические характеристики в узбекской классической литературе, достиг поэтического совершенства в литературе национального Возрождения. Также рассматриваются истоки, генезис и литературно-эстетические принципы образа борцов за национальную свободу.

Ключевые слова: генезис, художественный образ, устное народное творчество, национальная свобода, басмачи, исторический источник, художественный источник.

Annotation: In this article, the genesis of creating the image of national freedom fighters is ancient and is connected to Orhun-Enasoy monuments - stone inscriptions, folklore. This image has its own literary and aesthetic characteristics in the Uzbek classical literature, and has achieved poetic perfection in the literature of the national renaissance. The sources, genesis and literary-aesthetic principles of the image of the National Freedom Fighters are studied in the article.

Key words: genesis, fiction image, folklore, national liberation, wrestler, historical source, literary source.

O`rta Osiyo xalqlari tarixi qadimiy va boy ekani bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, Sharq xalqlari yuksak taraqqiyot va o`ziga xos betakror etnik madaniyatning vujudga kelguniga qadar uzoq va murakkab yo`lni bosib o`tganlar. Olis o`tmishga borib taqaluvchi xalq og`zaki ijodi bo`lmish dostonlarda, lapar-u o`lanlarda, maqollarda Sharq xalqlarining beqiyos madaniyati, hayoti, adabiy-estetik qarashlari o`z ifodasini topgan. “Alpomish”, “Go`ro`g`li”, “To`maris”, “Shiroq” singari dostonlar-u afsonalarda Sharq xalqlariga xos bo`lgan eng ulug`vor tuyg`ular – vatanparvarlik, mardlik, adolatparvarlik ulug`langan va madh etilgan.

Sharq xalqlariga xos adabiy-estetik qarashlar keyinchalik asta-sekinlik bilan

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

yozma adabiyot namunalariga ko'cha bordi. Didaktik adabiyot namunalarining paydo bo'lishi Sharq xalqlarining adabiy-estetik qarashlarini eng mukammal tarzda o'zida namoyish eta boshladi. “Qutadg'u bilik”dan tortib, mumtoz adabiyot namunalarigacha xalqimiz hayotiga xos bo'lgan axloqiy tamoyillarni o'zida mujassam etdi. Ayniqsa, Hazrat Navoiyning ijodi butun turkiy xalqlar uchun dasturul amal vazifasini bajardi. U zotning asarlarida aks etgan mehr-muhabbat, axloq, insoniylik, Olloh ishq, Vatan muhabbati kabi adabiy qarashlar butun Islom olami taraqqiyoti, balki butun dunyo taraqqiyoti uchun xizmat qildi. Ayni shu an'ana adabiyot uchun bugungi kunga qadar muhim bir vazifaga aylandi va inson kamoloti, axloq mezonlariga tayanish adabiyotimizning bosh mezoni sifatida belgilandi. Shu sabab qadim-qadimdan boshlab Sharq xalqlari uchun adabiyot tarbiya beshigi vazifasini bajarib, bu beshikda eng ulug'vor estetik qarashlar kamolga yetib bordi va tarbiya eng birinchi o'rinda turuvchi tamoyilga aylana bordi, deyishimiz mumkin. Adabiyotshunoslikda obraz badiiy tasviri genezisi alohida masala sanaladi. Aslida Sharq adabiyotida genezis masalasi eng muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Adabiyot bularning barchasini o'zida mujassam etuvchi kuchdir. Nodira Xoliqova aynan millatning o'tmishini namoyon etishda, tarix hodisalarini o'zida aks ettirishda adabiyotning beqiyos o'rin tutishi haqida alohida to'xtaladi: “Tarix guvohki, xalqimiz yunon, arab, mo'g'ul, eron va rus bosqinlari oqibatida nihoyatda og'ir kunlar, bir-biridan musibatli voqea-hodisalarni boshdan kechirgan. Lekin har bir bosqinchilik, qirg'in-qabohat el-yurtning sabr-bardoshi, irodasi va matonatini go'yo sinovdan o'tkazgan. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tanazzul to'siqlarini yengib o'tgan xalq yana qaddini rostlab, taraqqiyot sari dadil odim tashlagan. Bu holat va harakat o'z-o'zidan yuzaga chiqmagan, albatta. Eng qiyin damlarda ezilgan va xo'rlangan odamlarga, avvalo, adabiyot, tarix, din, ma'rifat yordam qo'lini cho'zgan. Bularning har biri o'z imkoniyati, imtiyoziga yarasha ommani ojizlik, mutelik, qashshoqlik, noumidlik hamda fikrsizlikdan qutqazishga madad bergan. Adabiyot esa mazlum xalqning ko'ngliga doimo yaqin bo'lgan, uning qalbini qurshagan g'am-alam, dard va hasratlarni jonli tarzda ifodalash uchun faollik ko'rsatgan. Zero, millat erki va ozodligiga daxldor biror harakat yoki hodisa yo'qki, uning ifodasidan adabiyot o'zini chetga olgan bo'lsin” [Xoliqova N . 1].

Demakki, badiiy obrazlar uchun asos bo'lgan manbalarni o'rganish, aniqlash biz uchun obraz va badiiy asar genezisini aniqlashda muhim manba bo'la oladi. Milliy ozodlik kurashchilari obrazi genezisini aniqlash jarayonida yozuvchi eng avval tarixga murojaat etadi. Milliy ozodlik kurashchilari obrazi genezisi nihoyatda qadim

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ildizlarga ega. Boisi bu obraz kecha va yoki bugun paydo bo‘lib qolgan obraz emas. Vatan degan tushuncha yaralibdiki, milliy ozodlik kurashchilari degan tushuncha mavjud. Har bir davrda har bir xalq ozodlik, hurlik istagida bo‘lgan va bu yo‘lda o‘zi uchun mard va adolatparvar bir rahnamoni tanlagan. Aynan shu rahnamo nafaqat tarixning, balki adabiyotning ham qahramoniga, bosh obraziga aylangan. Agar milliy ozodlik kurashchilari obrazi tadrijiga e‘tibor qaratsak, ularni quyidagicha ketma-ketlikka ajratishimiz mumkin:

1. Eng qadimgi davr adabiyotida qahramonlar harakatining aks etishi va ularning rahnamolari obrazi.

2. O‘zbek mumtoz adabiyotida ozodlik harakati yo‘lboshchilari obrazining poetik talqini.

3. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotida istiqlol qahramonlari obrazining badiiy takomili.

4. Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida milliy ozodlik kurashchilari obrazi tasviri.

Ko‘rinib turibdiki, ozodlik kurashchilari obrazi genezisi masalasi nihoyatda chuqur va bu masalani batafsil bayon etish anchayin mushkul jarayondir. Shu jihatdan ozodlik harakati kurashchilari obrazi genezisi masalasini yuqoridagi birinchi guruh asnosida, ya‘ni eng qadimgi davr adabiyotida qahramonlar harakatining aks etishi va ularning rahnamolari obrazini qisqa va aniqlikda yoritib berishga qaror qildik.

Turkiy xalqlar qadimdan ozodlikka intilishi, tobe‘likka ko‘nmasligi bilan boshqa xalqlardan tamomila ajralib turadi. Bu holat ifodasi necha ming yilliklarga borib taqaluvchi toshbitiklarda ham o‘z aksini topadi. Bu davrlar adabiyoti uchun millat qahramonlari bo‘lmish To‘nyuquq, Kultegin, Bilga qoon kabi obrazlar qiyofasi muhim o‘rin tutadi. Bu qahramonlar madh etilgan asarlarda bosh maqsad xalqni o‘z yurtini sevishga, o‘z hukmdorlarini qadrlashga undash bo‘lgani bois bunday asarlarda undov, chaqiriq ohanglari yetakchilik qiladi, Vatan eng ulug‘ tushuncha ekanligi, uni asrash muqaddas burchligi badiiy aks ettiriladi. To‘nyuquqning o‘z xalqi, Vatani taqdiridan mudom xavotir olishi, yovning ona tuproqqa hujum qilishga tayyorlanayotganini eshitgandagi bezovtalanishi quyidagicha tasvirlanadi: “O‘sha xabarni eshitib tunlari uyqum kelmadi, kunduzlari o‘tirim kelmadi. (O‘l sabig‘ eshidip tun udisiqim kelmadi, kuntuz o‘lursiqim kelmadi)” [Mallayev N. 2]. Ayni shu ifodaning o‘ziga xosligi, chuqur mazmun va dardni ifoda etishi turkiy adabiyotning milliy ozodlik kurashchilari obrazini yaratish genezisdagi mukammallik, o‘ziga

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

xoslik, badiiylik nihoyatda betakror va qadimiyligini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotida milliy ozodlik kurashchilari obrazini yaratish an‘ana darajasida turgan deyish mumkin. To‘g‘ri, bu obrazlar qiyofasini qayta tiklash, butunlay o‘zgartirilib tahlil qilingan tarixni anglash va anglatish oson hodisa emas edi. Ammo ayni shu ulkan xatolikni tuzatish, millatni o‘z o‘tmishining chinakam mohiyati bilan tanishtirish mas‘uliyati adabiyotning yelkasida turishi ham tabiiy hol edi. Shu jihatdan bu vazifani ado etish istiqlolning dastlabki yillaridanoq boshlandi. “Ko‘kto‘nliklar”, “Qo‘rboshi Madaminbek”, “Saidnabi qorovulbegi”, “Madaminbek”, “SHermuhammadbek qo‘rboshi” singari asarlar ayni shu vazifa yo‘lidagi dastlabki urinishlar sirasidan bo‘ldi. Tohir Malikning “Ov” kabi asarlarda ham milliy ozodlik kurashlari haqidagi o‘ziga xos qarashlar davom ettirildi. Ta‘kidlash joizki, bu asarlarning barchasini birdek badiiy jihatdan pishiq, mukammal kompozitsion qurilishga ega asarlar deb baholab bo‘lmaydi. Biroq ulardagi tarixning buzilgan qirralarini charxlashga urinish, ilmiy asoslar va tarixiylikka egalik kabi xususiyatlar bu asarlarning tarix va adabiyot oldidagi mavqeini anchayin mustahkamlab beradi. Zero, uzoq yillik buzilgan o‘tmish g‘ishtlari orasidan butun g‘ishtlarni topib haqiqiy tarix binosini yana qayta qurish oson ish emas edi. Qolaversa, bu ishni qilishga ham barcha yozuvchida birdek jasorat topilavermasligini alohida qayd etish joiz.

Madaminbek, SHermuhammadbek, Saidnabi qorovulbegi kabi obrazlarning asl qiyofasini aniqlashda tarixga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lmoq joiz. Boisi, milliy ozodlik kurashchilari obrazi, qiyofasi tarixda uzoq yillar mobaynida tamoman buzilib, boshqa shaklda talqin etilgan edi. Bu obrazlarga tarixiy va badiiy jihatdan to‘g‘ri yondashish 90-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi. Mualliflar bu obrazlarga ham tarixiy, ham badiiy jihatdan yondashmog‘i zaruriy ehtiyoj. Shu jihatdan mualliflar milliy ozodlik kurashchilari obrazini yaratishda eng avvalo, tarix bilan hamkorlikda ish olib borishlari zaruriy ehtiyoj edi.

Zotan, milliy ozodlik kurashchilari obrazining yaratilish genezisi eng avvalo, xalq va uning ijodi bilan borib tutashadi. Adabiyot har bir davrda xalqning orzu-umidlarini, o‘y-xayollarini o‘zida aks ettiradi. Tarixdagi har bir voqelik xalq og‘zaki ijodida o‘z aksini topadi. Milliy ozodlik kurashchilari, mardikorlik voqealari xalq orasida chuqur bahs-munozaralarga sabab bo‘libgina qolmay, ularning adabiyotida, qo‘shiq-lari-yu rivoyatlarida, latifa-yu hangomalarida o‘z aksini ko‘rsatib bordi. Bunday ma‘lumotlar nafaqat badiiy asarlarda, qolaversa, tarixiy asarlarda ham aks etadi: “Madaminbek fojeali ravishda halok bo‘lsa ham, uning porloq nomi Turkiston istiqlolchilari o‘rtasida tillarda doston bo‘lishda davom etdi. Madaminbek haqida turli

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

qo'shiqlar to'qilib, istiqlochlilar tomonidan kuylandi” [Rajabov Q. 3]. Demakki, Madaminbek obrazi eng avvalo, xalq tomonidan yaratila boshlandi va keyinchalik badiiy adabiyotga ko'chdi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, “kimki bu dunyoda qurmoqchi, yaratmoqchi, noraso tartib-qoidalarni o'zgartirmoqchi, hur va erkin, ozod yashamoqchi, haqtalab bo'lsa zamonlar unga dor tutgan, choh qazigan, otgan, xo'rlagan, ezgan, yanchgan” [G'aniyev I., Afoqova N. 4]. Biroq xalq o'z qahramonlarini hech bir davrda unutmaydi, ularning xotirasidan voz kechmaydi. Shu ma'noda milliy ozodlik kurashchilari obrazi genezisini dastavval xalq og'zaki ijodi namunalaridan izlash maqsadga muvofiq. Masalan, “Farg'onajon” nomli qo'shiqda Madaminbek va uning shonli hayot yo'li haqida so'z borishi barobarida, shunday mardlar tug'ilgan diyordan nega yana shunday pahlavonlar topilmayotgani haqida kuyinib so'z yuritiladi:

Farg'onajon, Farg'onajon –
Botirlar tuqqan onajon,
Madaminbekning diyorida
Yuragi yongan zotlar qani?

Bu kabi misralar asta-sekin Madaminbekni badiiy adabiyotimizning eng yetakchi obrazlaridan biriga aylanishiga ham yordam berdi. Zero, bunday obrazlar nafaqat xalq uchun, balki adabiyot uchun ham zaruriy obrazlardan biri edi deyish mumkin. Milliy ozodlik kurashchilari o'z davrlarida istiqlol uchun jon fido qilgan bo'lsalar, millatning ziyolilari ham qaysidir ma'noda ularni qo'llab-quvvatladilar. Zero, kurashchilarning ham, ziyolilarning ham tanlagan yo'llari bitta edi. Shu ma'noda, ularning barchasi xalqqa qilinayotgan nohaqliklar va adolatsizliklarga shunchaki ko'z yumib ketishlari imkonsiz bir holat edi. Abdulla Avloniyning kuyunib: “Biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar dumba sotub, chandir chaynaymiz. Qaymoq berub, sut oshaymiz, non o'rniga kesak tishlaymiz!” kabi fikrlari so'zlarimizning isbotidir [Avloniy A. 5]. Xalqning ongu shuuri uyg'oq har bir farzandi bunday hodisalarni chuqur anglar, yaxshi tushunar edi. Ayni shu sababga ko'ra milliy ozodlik kurashchilari qiyofasi tarix qatida qolib ketishi, badiiy adabiyotga ko'chmasligi aslo imkonsiz bir holatdir. Mohiyatan o'ylab ko'rilganda, muallif biror voqelikni o'rganar, aniqlar ekan unga nafaqat tarixiy fakt asosida, balki ichki tuyg'ular asnosida ham yondashadi. Milliy ozodlik kurashchilari qiyofasini yaratish jarayonida ijodkorlar tarix va adabiyot uyg'unligida ish ko'rishar ekan, tarixga badiiylik, jonlilik, ta'sirchanlik baxsh etadilar. Milliy ozodlik kurashchilari obrazi genezisi tarixning eng olis kunlariga, qiyin vaziyatlariga borib taqaladi. Bu

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

obrazlar genezisini chuqur tushunish, anglash va anglatish ijodkordan ulkan mahorat, badiiy shijoat va bilimni talab etadi. Zero, chinakam adabiyot va yozuvchi maqsadlari mavjud yerda badiiy jihatdan barkamol asarlar yaratilishi barobarida tarixiy haqiqat tiklanadi, yuzaga chiqadi.

Xullas, Milliy ozodlik kurashchilari obrazini yaratish albatta, birdaniga takomilga yetib qolmadi. Bu obrazlarning asl qiyofasini, kelib chiqish genezisini aniqlash uchun yillar kerak bo‘ldi. Asta-sekinlik bilan Madaminbek, SHermuhammadbek kabi tarixiy shaxslar qiyofasi o‘zining asl mohiyatini ochib bordi. Natijada, o‘zbek adabiyotida milliy ozodlik kurashchilari obrazi va qiyofasi paydo bo‘ldi. Ishonchimiz komilki, bu an‘ana keyinchalik ham o‘zbek adabiyotida davom etadi va millat himoyachilari obrazi genezisi ham yanada chuqurlashib, boyib, konkretlashib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Авлоний А. Танланган асарлар. 2 жилдлик. – Т.: Маънавият, 1998. Ж. 1. – Б. 48.
2. Жабборов Н. Адабиёт ва миллий маънавият. – Т.: Маънавият, 2015. – Б.132.
3. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Kafolat print company, 2021. – Б.9.
4. Лихачев Д.С. Приучастие А.А.Алексеева и А.Г.Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – С-Петербург: «Алтейя», 2001. – С.34.
5. Rajabov Q. Madaminbek. – Т.: Abu-matbuot konsalt, 2011. – В.30.
6. Ганиев И., Афоқова Н. Озод рух фалсафаси. – Т.: “ФАН”, 2006. – Б.48.
7. Холикова Н. Миллий уйғониш даври ўзбек шеърятисида озодлик харакатининг бадий талқини.Т.: 2009. Б.5.